

EKOSAN TASHKILOTI VA UNI O‘ZBEKISTONDAGI EKOLOGIK VAZIYATNI YAXSHILASHDAGI ROLI

Akromova Xurinis Iskandar qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va
adabiyoti universiteti 2- kurs talabasi
soiraakromova46@gmail.com*

Annotatsiya- Mazkur maqolada Respublikamizda bugungi kundagi ekologik muammolar va ularni bartaraf etish uchun keng ko‘lamda olib borilayotdan ishlar, Orol va orol bo‘yi atrof-muhitini muhofaza qilishda hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan chora tadbirlar yoritilgan. "Ekosan" xalqaro jamg‘armasi - respublikamizdagi eng yirik nohukumat tashkilotidir. Jamg‘arma 1992-yilda hukumat va nohukumat muassasalari, xalqaro tashkilotlar, mutaxassis olimlarning ko‘magida respublikadagi ekologik muammolarni hal etish uchun tashkil qilingan. Mazkur tashkilot - sog‘lom turmush tarzi, sanitariya-gigiyena bilimlari va kasalliklarning oldini olishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: ekosan, tashkilot, atrof-muhit dasturi, jamg‘arma ekologiya, ijtimoiy-ekotizm, Orol dengizi, geologiya, qo‘riqxonalar, milliy bog‘lar, atrof muhitni muhofaza qilish.

Kirish. "Ekosan" xalqaro jamg‘armasi - respublikamizdagi eng yirik nohukumat tashkilotidir. Jamg‘arma 1992-yilda hukumat va nohukumat muassasalari, xalqaro tashkilotlar, mutaxassis olimlarning ko‘magida respublikadagi ekologik muammolarni hal etish uchun tashkil qilingan. "Ekosan" tashkiloti - sog‘lom turmush tarzi, sanitariya-gigiyena bilimlari va kasalliklarning oldini olishni targ‘ibot qiladi.

Ekologik jihatdan noxush hisoblangan tumanlarda yashovchi aholiga davolash-profilaktika va insonparvarlik yordami ko‘rsatadi, Orolbo‘yi hududidagi ekologik inqiroz natijalarini bartaraf etish uchun xalqaro jamg‘armalar va hukumat tashkilotlarining e‘tibor va mablag‘ini jalb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Insonparvarlik yordami ko‘rsatish uchun "Ekosan" mablag‘ning asosiy qismini "Ekolot" ekologik lotereyasini tarqatishdan oladi. "Ekosan" faoliyati respublikamiz fuqarolarining jismonan baquvvat va ma‘naviy sog‘lom bo‘lishi uchun yo‘naltirilgan. "Atrof-muhit" dasturi ushbu konventsiyalarning bajarilishida O‘zbekistonga ko‘mak beradi. Bular iqlim o‘zgarishi, ozon qatlamining buzilishi, suv havzalarining ifloslanishi, biologik xilma-xillikni saqlab qolish, saholanishga qarshi kurash kabilami o‘z ichiga oladi. Atrof-

muhit musaffoligini ta'minlash inson faoliyati, ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham jahondagi va har bir mamlakatdagi ekologik sharoitni faqat insonning o'zigina yaxshilashi mumkin. Ayni shu sabab Global Ekologik Jamg'arma O'zbekistondagi loyihalarni moliyaviy ta'minlar ekan, avvalo muammoning dunyo ahamiyatiga molik ekaniga e'tibor beradi.

“Atrof-muhit” dasturi va boshqa xalqaro tashkilotlar O'zbekistonga yordam berar ekan avvalo mamlakatning o'zida ekologik muammolarni yechishga qodir mexanizm yuzaga kelishiga diqqat qaratadi. “Atrof-muhit” dasturining O'zbekiston tabiatni muhofa qilish davlat qo'mitasi bilan birgalikda tashkil etilgani ham mamlakat salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonning 2030- yilgacha bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ta'minlashda barqaror rivojlanishga erishish vositalari hisoblangan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarini o'zaro muvofiqlashtirish murakkab vazifa hisoblanadi. Iqtisodiy va ijtimoiy komponentlar jamiyat oldiga bir avlod mobaynida adolatga erishish va aholining kambag'al guruhlariga maqsadli yordam ko'rsatish kabi yangi vazifalarni qo'ymoqda. Iqtisodiy va ekologik komponentlarning atrof-muhitga tashqi ta'siri qiymatini baholashning zarurligi bilan bog'liq yangi g'oyalar va yondashuvlarning shakllanishiga olib keladi. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy va ekologik komponentlari esa avlodlar ichida avlodlar o'rtasida tenglikni ta'minlash kabi masalalarining dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Muhokama. O'zbekiston ekologiyasini yaxshilash uchun, mamlakatimizdagi iqtisodiy ahvolni yaxshilash, ekologik tanazzulning oldini olish uchun xalqimiz orasida qadimda ma'lum bo'lgan ekologik madaniyatni tiklashimiz, tarixini yaxshilab o'rganishimiz hamda undan hozirgi sharoitda foydalanish imkoniyatlarini qidirib topishimiz kerak.

Inson faoliyati ta'sirida biosferaning o'zgarishi juda tezlik bilan bormoqda. Insoniyatning tabiiy jarayonlarga ana shunday ta'sirda yoki munosabatda bo'lishi natijasida XX asr o'rtalarida ekologik muammolar juda avj olib ketdi. Ekologik muammo deganda insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri bilan bog'liq.

Inson sivilizatsiyasining rivojlanishi va uning va uning tabiat bag'riga tobora chuqurroq kirib borish oqibatida ahvol tubdan o'zgardi. Bugungi kunda ibtidoiy sof tabiat haqida gapiramasa ham bo'ladi. Chunki yer yuzidagi o'monlar qirgildi, katta-katta hududlar dehqonchilik qilish maqsadida o'zlashtirildi, dorilar bilan o'g'itlandi, har xil chiqindi hamda gazlar bilan toza havo va tabiat ifloslandi. Bundan tashqari tabiatda toshqinlar, o'rmon yong'inlari, chang bo'ronlar, va boshqa tabiiy jarayonlar yuz beradi. Bularning barchasi tabiatning tabiiy muvozanatiga putur yetkazadi. Dunyo bo'yicha kuzatiladigan tabiiy, antropogen yoki sof antropogen hodisalar

umumbashariy muammolar deb qaraladi. Ana shunday ekologik muammolarga bazi bir misollarni keltirib o'tamiz:

- 1."Atmosferaning dimiqishi" hodisasi.
- 2."Ozon qatlaminig siyraklanishi" hodisasi.
- 3."Chuchuk suv" muammosi.
- 4."Tirik tabiatdagi o'simlik va hayvonlar turlari soning qisqarishi" muammosi.
- 5."Pestisetlardan foydalanish" muammosi. Mintaqaviy ekologik muammolar.

Yer yuzasining muayyan mintaqasi o'ziga xos tabiiy iqlim, ijtimoiy- ekologik, etnografik xususiyatlari uni tabiat bilan inson o'rtasidagi o'zaro aloqa munosabatlari harakterini belgilab beradi.

Bugungi kunda O'zbekiston yirik sanoat va agrar mintaq bo'lib, kelajakda dunyoga yuz tutgan mashina sozlik, enegetika, kimo, oziq-ovqat sanoati, transport majmuini yanada rivojlantirish ko'zda tutilgan. Bunday ishlab chqaruvchi kuchlarning rivojlanishi Respublika ijtimoiy- ekotizmlarning holatiga muayyan darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Respublikada keskin bo'lib turgan ekologik va tabiatni muhofaa qilishga oid muammolar quyidagilar:

- 1.Yirik hududiy-sanoat majmualari joylashgan rayonlarda yani Angre Olmaliq Chirchiqlarda, Farg'ona-Marg'ilonda, Navoiy va boshqa rayonlardagi tabiatni muhofaza qilish muammolari. Bu rayonlarda ijtioiy-ekotizm holati yaxshi emas. Chunki sanoat markazlarida chiqayotgan turli-xil gazlar va chiqindilar atrof-muhitini ekologik holatini buzilishiga olib kelmoqda.
 - 2.Agro sanoat majmuidagi ekologik muammolar.
 - 3.Tabiatdagi suvlarning snoat chiqindilari pestisedlar va mineral o'g'itlar bilan ifloslanishi ham muammolardan biridir.
 - 4.O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va qayta tiklash muammolari, qo'riqxonalar va milliy bog'lar tarmog'ini kengaytirish.
- O'zbekistonda ekologik vaziyatn yaxshilash yo'llari.

O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish borasidai asosiy strategic maqsadlar quyidagilar hisoblanadi:

Aholining sihat salomatligi uchun qulay sharoit yaratish, beosferaviy muvozanatni saqlash; O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanis samaradorligi va barqarorligini ko'zlagan holda tabiiy resurslardan foydalanish qayta tiklanadigan tabiiy resurslar ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarining muvozanatini saqlash tiklanmaydigan resurslarni ishlab chiqish, chiqindilardan oqilona foydalanish; regional va local darajalarda tabiatnini qayta tiklanish hususiyatini tiklash; tabiatning dastlabki turlari va ularning genofondini landshaftlarining xilma-xilligini saqlash.

Vujudga kelgan Orol dengizi muammosi bilan bo'liq halokatli ekologik-iqtisodiy va ijtimoiy ahvolni yaxshilash, Orol dengizini saqlab qolish maqsadida aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash. Orol bo'yi aholisini normal sanitar sharoitlar va ozuqa bilan ta'minlash uchun Markaziy osiyo davlatlari bilan birgalikda qisqa vaqt ichida yagona suv xo'jaligi siyosatini ishlab chiqish hamda har bir Respublikaning Orol dengiziga quyila oladigan suvi, yani Orol bo'yicha barcha tabiiy ko'llarni saqlab qolish kabi ishlar rejalashtirilgan.

Atmosfera havosini muhofaza qilishning asosiy yo'nalishi shahar va aholi yashaydigan punktlarda atmosfera havosining sifatini yaxshilash, keyinchalik sanitar-gigienik qoidalarga rioya qilish buning uchun Respublikamizning barcha hududlarida chiqindilarni kamaytirish, kam chiqindili texnologiyalarni yaratish, chang toplovchi va tozalovchi yangi qurilmalarni yaratish va ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish eskirgan qurilmalarni yaxshilash bilan almashtirish va boshqalar.

Xulosa.

Ekosan – O'zbekiston ekologik muammolarini hal qilishga yo'naltirilgan muhim nodavlat tashkilotlardan biridir. Bu tashkilot ekologik barqarorlikni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, va fuqarolarni ekologik muammolarni hal qilish jarayoniga jalb qilish kabi vazifalarni bajaradi. Ekosan o'z faoliyati davomida ekologik xabardorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va tabiiy boyliklarni kelgusi avlodlar uchun saqlab qolishga xizmat qiluvchi qator loyihalarni amalga oshirgan.

O'zbekistonning ekologik muammolari, xususan, suv tanqisligi, tuproqning sho'rlanishi, havoning ifloslanishi va Chuqur Orolbo'yi hududlaridagi ekologik inqiroz, tashkilotning diqqat markazida turadi. Ekosan ekologik loyihalarni amalga oshirish orqali jamoatchilikni jalb etadi, ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlaydi va hukumat bilan hamkorlikda atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha tashabbuslarni ilgari suradi.

O'zbekistonning ekologik muammolari murakkab va ko'p qirrali bo'lib, ular mintaqaning iqlim o'zgarishi, Orol dengizi inqirozi, havoning ifloslanishi, suv resurslarining tanqisligi, va tuproqning degradatsiyasi kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Ushbu muammolar nafaqat tabiatga, balki inson salomatligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ekosan tashkiloti aynan shu masalalarga e'tibor qaratadi va ularni hal qilishda ilmiy yondashuv va jamoatchilikni faollashtirish usullaridan foydalanadi.

Avvalo, sohaga oid yangi qonun loyihalari yaratish, mavjudlarini takomillashtirish, nazorat-tahlil faoliyatini bugungi talab darajasida kuchaytirish, uzluksiz ekologik ta'lim konsepsiyasini ishlab chiqish, ekologik nazoratning jamoatchi inspektorlari tizimini rivojlantirish, aholi ekologik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tizimli ishlarni amalga oshirish, atrof-muhitga zararli ta'sir

ko'rsatuvchi obyektlarni va suv tozalash inshootlarini inventarizatsiyadan o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi qabul qilinib, hayotga izchil tatbiq etilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni aholining iste'mol, maishiy va boshqa ehtiyojlari uchun suv obyektlaridan foydalanish qismining ijro etilishi yuzasidan Sog'liqni saqlash hamda Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirliklari, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitalari axboroti yuzasidan parlament eshituvlari bo'lib o'tdi. Ayni chog'da "Xavfli chiqindilarni transchegaraviy tashish va ularni yo'q qilish ustidan nazorat qilish to'g'risida"gi Bazel konvensiyasi bajarilishi holati o'rganilib, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi eshituvi tashkil etildi. Ushbu tashkilotning faoliyati orqali O'zbekistonda ekologik barqarorlikni ta'minlash yo'lida muhim o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ekosan nafaqat ekologik muammolarning oldini olish, balki fuqarolarni faol ishtirokga chorlash orqali xalqning ekologik ongini yuksaltirishda katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, uning tashabbuslari tabiiy resurslarni kelgusi avlodlar uchun saqlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. M. 2017—2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Ekologiya va atrofmuhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni. 21-aprel 2017-yil, Toshkent.
3. Qayumov A.A., Raxmonov R.N., Egamberdieva L.SH., Xamroqulov J.H. Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish. – T.: "Iqtisodiyot", 2014.
4. Nigmatov A.N. ekologiyaning nazariy asoslari. ekologiya va atrof muhit Muhofazasi ta'lim yo'nalishi va mutaxassisligi uchun o'quv qo'llanma.—mas'ul muharrir b.f.d. A.S.Yuldashev — T., 2013.
5. Ergasheva, Y. A., Vasieva, D. I., & Murtazova, S. B. (2019). Political persecutions and ideological pressure on the creative intellectuals of Uzbekistan in post-war decades. *International Journal of Recent Technology and Engineering*, 8(2 S10), 374-377.